

## Kutubxona filiali

2018-yil 15-mart kuni Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti 3-talabalar turar joyida institut kutubxonasi filiali ochilishi bo'lib o'tdi. Bu kutubxonaning ochilishida talabalar turar joyi direktori Z. Yuliyev, institut axborot resurs markazi xodimi D. Sobirova, 3-talabalar turar joyi mudiri I. Qurbonov, "I va M" fakulteti dekan muovini J. Turdiyev hamda 3-talabalar turar joyi pedagog tarbiyachisi A. Xayitova va faol talabalar ishtirok etdilar. Z. Yuliyev o'z samimiy tilaklarini bildirdilar hamda kutubxonani boyitish maqsadida qiziqarli badiiy kitoblarni olib kelishda o'z hissalarini qo'shishni talabalarga aytib o'tdilar, shu jumladan kitobsevar bilimga chanqoq "QSXEА" fakulteti 1-bosqich talabasi N. Raximova o'z tashabbusi bilan rus tili adabiyotiga mansub bir necha kitoblar taqdim etib kutubxona javoniga o'z hissasini qo'shdi. Talabalar turar joyida yashovchi talabalar kutubxona ochilganligi uchun institut rahbariyatiga o'z minnatdorchiliklarini bildirdilar.



**3-talabalar turar joyi pedagog-tarbiyachisi Aziza Xayitova axboroti**

**Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**